	Case Study metodini biologiya ta'limiga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini shakllantirish ..... 639 Raupova Mehrinigor Haydarovna
	Rinolaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar tasavvur xususiyatlari ..... 644 Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi
	Talabalarda statistik va ehtimollik tafakkurini shakllantirishda 5E modelining o'rni ..... 647 Saliyeva Sevara Ma'mirbek qizi, Botirova Mavluda To'xtasin qizi
	Inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etish jarayoni va samaradorligi ..... 651 To'xtamatova Maftuna Ismonjonovna
	STEAM ta'lim texnologiyasining optika bo'limini o'qitishdagi samaradorligi ..... 655 Turdaliyev Ulug'bek Valijon o'g'li
	Umumta'lim maktablarida chet tili o'qitishda raqamli platformalarni integratsiya qilishning texnologiyasi va samaradorlik modeli ..... 658 Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi
	Autistik spektri buzilishi bo'lgan bolalarda sensor-motor korreksiya asosida psixomotor rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tizimi ..... 664 Usmanova Nilufar Ilhom qizi
	Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi profilaktikasini augmented reality texnologiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish ..... 670 Xo'jamberdiyev O'tkirbek Egamberdi o'g'li
	Ecological Education in General Education Schools ..... 675 Xojanov Baxadir Keunimjaevich
	Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining volontyorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari ..... 678 Xushnazarova Ma'mura Nodirovna
	Xalq qo'shiqlari orqali 6–7-sinf o'quvchilarida adabiy- nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish ..... 681 Yuldasheva Noila Ravshan qizi
	Креативное мышление: на пути к совершенствованию ..... 685 Абдулбориева Мехруза Анвар қизи
	Зарубежный опыт в профессиональном образовании: тенденции и перспективы ..... 689 Азизова Асаль Руслановна
	Muloqot turlari klassifikatsiyasi xususida shaxslararo muloqot madaniyati ..... 693 Urakov Sherzod Raxmonovich, Usarov Orifjon Olimovich

# AUTISTIK SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN BOLALARDA SENSOR-MOTOR KORREKSIYA ASOSIDA PSIXOMOTOR RIVOJLANISHNI QO'LLAB- QUVVATLASH TIZIMI

Usmanova Nilufar Ilhom qizi

Alfraganus Universiteti Maxsus pedagogika:  
Logopediya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada autistik spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarda sensor-motor darajadagi rivojlanishning buzilishlarini aniqlash va ularni tuzatishga qaratilgan korreksion mashqlar tizimi bayon etiladi. ASBga ega bolalarda ko'pincha sezgi tizimlarining disfunktsiyasi, mushak tonusining nomutanosibligi, taktil va vestibulyar sezuvchanlikning o'zgarishi, nutq va ijtimoiy aloqa qobiliyatining sustligi kuzatiladi. Maqolada bolada sensor axborot, harakat va affektiv javoblar o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantirishga qaratilgan, ota-ona ishtirokida olib boriladigan mashqlar tizimi va ularning psixokorreksion samarasi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** autistik spektr buzilishi, sensor-motor korreksiya, psixomotor rivojlanish, mushak tonusi, sezgi disfunktsiyasi, ota-ona ishtiroki, taktil sezgi, vestibulyar integratsiya, nutqqa tayyorgarlik.

**Abstract:** This article describes a system of corrective exercises aimed at identifying and correcting developmental disorders at the sensorimotor level in children with autism spectrum disorder (ASD). Children with ASD often have dysfunction of sensory systems, imbalance of muscle tone, changes in tactile and vestibular sensitivity, and impaired speech and social communication skills. The article discusses a system of exercises with the participation of parents aimed at forming a connection between sensory information, movement and affective responses in a child and their psychocorrectional effect.

**Key words:** autism spectrum disorder, sensorimotor correction, psychomotor development, muscle tone, sensory dysfunction, parental participation, tactile sensation, vestibular integration, speech preparation.

**Аннотация:** В статье описана система коррекционных упражнений, направленных на выявление и коррекцию нарушений развития на сенсомоторном уровне у детей с расстройствами аутистического спектра (РАС). У детей с РАС часто наблюдается дисфункция сенсорных систем, дисбаланс мышечного тонуса, изменения тактильной и вестибулярной чувствительности, а также нарушения речевых и социальных навыков. В статье рассматривается система упражнений с участием родителей, направленная на формирование связи между сенсорной информацией, движением и аффективными реакциями у ребенка, и их психокоррекционный эффект.

**Ключевые слова:** расстройство аутистического спектра, сенсомоторная коррекция, психомоторное развитие, мышечный тонус, сенсорная дисфункция, родительское участие, тактильная чувствительность, вестибулярная интеграция, речевая подготовка.

## KIRISH

Autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda neyropsixik rivojlanish o'ziga xos va murakkab yo'nalishda kechadi. Ularning psixik faoliyati asosan sezgi axborotining noto'g'ri qabul qilinishi va qayta ishlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat o'z navbatida harakat faoliyati, emotsional reaktivlik, nutq shakllanishi va ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sensor-motor daraja bolaning rivojlanishida asosiy pog'onalardan biri hisoblanib, bu bosqichda bola sezgilari, harakat reflekslari va affektiv holatlar uyg'unlashadi. ASBga ega bolalarda ushbu darajadagi buzilishlar ko'pincha mushak tonusining pasayishi yoki oshishi, proprioseptiv va vestibulyar tizimlarning zaiflashuvi, kontaktga kirishishdan qochish, nutqning yo'qligi yoki cheklanganligi, emotsional javobning noaniqligi ko'rinishida namoyon bo'ladi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashda sensor-motor mashqlar tizimining qo'llanilishi, uning metodik asoslari, bolalardagi individual xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishiga qaratilgan. Mashqlar ota-ona ishtirokida, individual yondashuv asosida olib boriladi va bolaning tana chegaralarini idrok etishi, motor reaksiyalarini boshqarishi, sezgilarga nisbatan chidamliligini oshirish, hamda emotsional-ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Sensor darajadagi psixika rivojlanishi – bu psixik tizim faoliyatining shunday bosqichiki, unda asosiy o'rinni tashqi ta'sirning miqdoriy xususiyatlarini (intensivligini) sensor qabul qilish egallaydi. Bu darajada asosiy vazifa – ichki gomeostazni (qulaylikni) saqlab turishdir.

### Sensor darajadagi psixika rivojlanishida disfunktsiyasi bo'lgan bolani tavsiflash:

Ushbu guruhdagi bolalar bilan ishlaganda avvalo mushak karkasi holatiga, asosiy mushak guruhlaridagi zo'riqishga e'tibor berish kerak. Aynan harakat reaksiyalari bolaning psixik hayotining xususiyatlarini bildiradi. Birinchi belgi – bu mushak tonusi bo'lib, u holatlarda namoyon bo'ladi. Tonik xususiyatlar yetarlicha barqaror bo'lib, keyinchalik bolaning tana obrazi tarkibiga kiradi va "Men" obraziga integratsiyalanadi. Ushbu guruhdagi bolalar uchun nevrologik buzilishlar – epilepsiya va mushak gipotoniyasi xos. Gipertonus motorikani, ayniqsa mayda motorikani to'sib qo'yishi mumkin va bolaning atrof-muhitni o'rganish qobiliyatini keskin cheklaydi. Ichki hayotda esa bu yomon farqlanuvchi qo'zg'alishning umumiy to'lqini bilan kechadi. Atoniya esa mayda motorika va sezuvchanlikni erkin saqlaydi, bu esa intellektual rivojlanish uchun ilk bosqichlarda juda muhimdir. Bu holat predmetli dunyoga qiziqishning shakllanishi uchun shart-sharoit yaratadi, biroq muloqotga emas. Qo'l va oyoq harakatlari simmetrik bo'ladi, chunki miya ustunidagi darajada hali funktsiyalararo assimetriya rivojlanmagan. Bola yiqilganda ikkala qo'lini bir paytning o'zida cho'zadi. Ko'pincha orqa mushaklari, ayniqsa orqani tik tutuvchi mushaklar zo'riqib turadi – bu esa doimiy qo'zg'alish natijasidir. Vestibulyar buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan har xil qo'rquvlar kuzatiladi: yiqilish tashvishi, qiya yuzalardan qo'rqish. Emotsional aloqalarning yo'qligi tana tonusining pasayishiga va predmetli maydoniy xatti-harakatlarga olib keladi – bu esa sensor taassurotlarni izlash ko'rinishida bo'ladi. Odatda, bu bosqichda nutq mavjud bo'lmaydi. Bola hissiyotlarini ifodalashda yirtqich hayvonlarnikiga o'xshash baqiriqdan (yoshlarsiz) foydalanadi, tinch holatda esa monoton vokallanishlar yoki oddiy echolaliyalar kuzatiladi. Chizilgan rasmga "impulsiv", takrorlanmaydigan, alohida chiziqalar xos bo'ladi, varaq chekkalari e'tiborga olinmaydi. Ko'rish periferik xarakterga ega bo'lib, ko'zga qarash yo'q. Buning sababi – ko'z innervatsiyasi miya ustuniga bog'langan o'qli muskulatura tomonidan ta'minlanadi, o'zaro ta'sir paytida kuchli qo'zg'alish yuzaga keladi va ko'z harakatlari maqsadsiz bo'ladi. Bu darajada yaxlit qabul qilish mavjud emas, deb taxmin qilish mumkin. Bola bilan aloqa o'rnatishga urinilganda salbiy qo'zg'alish, tashvish va tana dezorganizatsiyasi paydo bo'ladi. Psixologik himoya sifatida bir sezgi a'zosiga (qarash, ovoz) asoslangan doimiy stereotipiyalarni saqlash ehtiyoji yuzaga keladi. Bu holat bolaning tashqi tana chegaralari, tana qobig'ining sezilmasligi bilan bog'liq.

Korreksiya maqsadi: sensor ma'lumot, affekt va harakatlar o'rtasida bog'liqlikni shakllantirish, yoqimli va yoqimsiz teginishlarni farqlashga o'rgatish, sensor "chidamlilik"ni oshirish, sensor ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini rivojlantirish.

### Korreksiya vazifalari:

- Sensor qabul qilishning barcha sohalariga yetarlicha stimulyatsiya berish;
- O'z tanasining yuzasini sezish jarayonlarini kuchaytirish;
- Eng oddiy maqsadga yo'naltirilgan harakatlar va harakatni rejalashtirish elementlarini shakllantirish;
- Ko'rish va teginish orqali sezish hamda affekt (hissiy holat) o'rtasida bog'liqliklar hosil qilish;
- Hissiy jihatdan boy material asosida umumiy diqqatni shakllantirish;
- Ishoralar va oddiy harakatli o'yinlardan foydalanib, eng sodda o'zaro aloqani shakllantirish;
- Harakatlarning oddiy ketma-ketligini o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari ko'rinishida shakllantirish.

### Ushbu darajadagi korreksion ishning xususiyatlari:

- Korreksion ish ota-ona bilan birgalikda individual tarzda olib boriladi;
- Bolani tekshirish natijalariga asoslanib, mutaxassis unga yoqadigan sensor materiallar va jihozlarni tanlaydi (masalan, aylanishni yaxshi ko'radigan bolalar uchun aylanadigan kreslo);
- Mutaxassis mashg'ulot vaqti va mashqlar sonini belgilaydi, 20 daqiqadan boshlanadi;

- Har bir mashqdan so'ng bolaning holatini diqqat bilan kuzatish zarur: uni ortiqcha qo'zg'alishga olib kelmaslik va kontaktdan butunlay chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- Mutaxassis bolaning sensor profilini inobatga olib, uni turli individual sensor o'zaro ta'sir turlariga jalb qiladi;
- Mutaxassis o'yin va mashqlarni bolaning sezgirlik darajasiga mos holda, unga yoqadigan tarzda moslashtirishi kerak;
- Bolani yangi vaziyatga asta-sekin kiritish lozim, harakatlar ketma-ketligini 1–2 mashqdan boshlab rejalashtirish zarur (ular ketma-ketligini bolaga vizual ko'rsatkichlar orqali tushuntirish mumkin);
- Taktill-ritmik ketma-ketliklar, turli vestibulyar ta'sir turlari (batut, arg'imchoq, g'amakkaravot), yuzma-yuz o'yinlar, "ko'z–qo'l", "qo'l–og'iz" koordinatsiyasini shakllantiruvchi o'yinlar qo'llaniladi;
- Boshlang'ich bosqichlarda mashqlar bolaning o'zi emas, balki katta odamning qo'llari orqali passiv tarzda bajariladi;
- Keyinchalik katta odam bolaning o'z harakati bilan faol bo'lishiga turtki beradi va uni qo'llab-quvvatlaydi, bola hissiy holatini aks ettiradi va uning harakatlarini taqlid qiladi;
- Bola harakatlarni mustaqil bajarganini doimiy ravishda rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash kerak (hatto mashq to'liq va aniq bajarilmagan bo'lsa ham).

### Asosiy mashqlar

#### Mashq: "Arg'imchoq"

Bola orqasi bilan yotadi, kattalar uni qo'l va oyoqlardan ushlab, havoda asta-sekin tebratishadi va ehtiyotkorlik bilan polga qo'yishadi. Boshning orqaga tashlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Dastlabki bosqichlarda bola kontaktdan qochayotgan bo'lsa, bu tebratish mashqini adyol ustida amalga oshirish mumkin: bu holda kattalar adyolning burchaklaridan ushlab tebratishadi.

*Izoh.* Bu mashq ichki propriotseptiv va vestibulyar sezgilarni ritmik stimulyatsiya qilishga yo'naltirilgan. Ushbu stimulyatsiya fonida bola bilan ko'z aloqasi o'rnatish kerak bo'ladi.

#### Mashq: "Tezakkarcha"

Bolaning boshlang'ich holati – orqasida yotgan holda. Bolaning tizzalarini ko'kragiga yaqinlashtiring, boshini tizzalarga yaqinlashtiring, boldirlar bolaning qo'llari bilan quchilgan bo'ladi. Oldinga va orqaga bir necha marta tebratish bajariladi. Dastlabki bosqichlarda mashq passiv tarzda bajariladi, keyin bola uni mustaqil bajaradi. Mashq tashqi sanash asosida 10 martagacha bajariladi.

*Izoh.* Agar bola boshini mustaqil ushlab tura olmasa va boshini polga urib olsa, bu bo'yin mushaklarining kuchsiz nazorati va atoniyasidan dalolat beradi. Bunday hollarda ota-ona bolaning boshidan pastroqda va tizzalar ustida birlashtirilgan qo'llari orqali ushlab turadi. Ko'pincha yuqori mushak tonusi sababli umurtqa deyarli bukilmaydi, "yoy" shakli hosil bo'lmaydi yoki faqat ayrim joylar bukiladi. Ushbu mashq bosim orqali umurtqa bo'ylab mushaklarni bo'shashtiradigan – dekontsentratsiya – holatini chaqiradi.

Boshqa variant – boshlang'ich holatda navbatma-navbat o'ng va chap yon tomonga ag'darilish. Borgan sari bu ag'darilishlar tezroq bajariladi. Bu mashq "Xamirbolaloq" deb ataladi.

#### Mashq: "Qanotchalar"

Boshlang'ich holat – bola qorni bilan yotadi. Uning qo'llarini bukib, bilak bo'g'imlarini yelka bo'g'imlariga yaqinlashtirish kerak va har ikkala qo'l bilan qush qanoti harakatlariga o'xshash harakatlar bajariladi. Bola gavdasini qo'llaridan ushlab, orqa umurtqasini bukib, tanasini ko'tarish kerak. Bu mashq 10 martagacha bajariladi.

#### Mashq: "Savatcha"

Boshlang'ich holat – bola qorni bilan yotadi. Ushbu holatdan u orqada qo'llari bilan tovonlarini quchadi. Dastlabki bosqichlarda bu holatni ushlab turishga yordam berish kerak. Bola qo'l va oyoqlarini ko'tarib, umurtqasini bukish kerak. Oldinga-orqaga biroz tebratish tavsiya etiladi (10 martagacha).

*Izoh.* "Qanotchalar" va "Savatcha" mashqlari umurtqa mushaklarini stimulyatsiya qilish, ularni cho'zish, bo'shashtirish va mushak tonusini normallashtirishga qaratilgan.

#### Mashq: "Yog'ochchalar"

Bolaning boshlang'ich holati – orqasi bilan yotgan, qo'l va oyoqlari to'g'rilgan. Dastlabki bosqichlarda ikki kishi bolaning tanasini "ipday" to'g'rilab, qo'l va oyoqlardan tortib, uni aylantirishadi. Keyin bola o'zi butun



gavdasi bilan bir devordan ikkinchisiga va yana orqaga ag'darilib harakat qiladi. Mashqning bir varianti – bola ag'darilayotgan paytda qo'llarini yon tomonlarda tutadi – bu "Askar bola" deb nomlanadi.

*Izoh.* Ushbu mashqni ehtiyotkorlik bilan bajarish muhim, ayniqsa bolaning ko'zlarini doimiy kuzatish kerak, chunki dastlabki bosqichlarda bosh aylanishi paydo bo'lishi mumkin – bu holatda tezlikni va takrorlar sonini kamaytirish kerak. Ushbu mashq propriotseptiv sezgilarni stimulyatsiya qiladi, miya, ayniqsa, miyaning orqa pastki qismi (mo'zgacha)dagi chuqur tuzilmalar qon ta'minotini yaxshilaydi.

#### **Mashq: "Hascharacha" (yoki "G'umbak")**

Bola guruhlanadi: qo'l va oyoqlarini ostiga bukadi, so'ng ikkala qo'lini oldinga uzatadi va butun tanasini qo'llar orqasidan sudrab oldinga tortadi, oyoqlarini to'g'rilaydi. Bola imkon qadar cho'zilib, qorni bilan yotgan holatda bir muddat shu holatda qolishi kerak, keyin yana qo'l va oyoqlarini ostiga tortadi va harakatni takrorlaydi. Shu tariqa bola oldinga harakat qiladi, bu harakat hasharot (g'umbak) harakatiga o'xshaydi.

#### **Qo'shimcha mashqlar**

##### **Mashq: "Mevali holat"**

Bola o'zini bukib, oyoqlarini ostiga yig'ishtirib o'tiradi: tovonlar tashqariga qaragan, oyoq panjalari va tizzalar birga tutashgan. So'ngra oldinga egiladi, peshonasi yerga tegadi. Qo'llari oyoqlari bo'ylab cho'zilgan, kaftlari yuqoriga qaratilgan. Ushbu holatda optimal davomiylik – 2 daqiqa.

*Izoh.* "Hasharachacha" va "Mevali holat" mashqlari tana mushaklarini cho'zishga xizmat qiladi, simmetrik ikki qo'l bilan maqsadli harakatlarni shakllantirishga yordam beradi. Qorin bo'shlig'i a'zolariga bosim tushishi hisobiga mushak tonusi qayta taqsimlanadi, butun umurtqa va boshning qon ta'minoti yaxshilanadi.

##### **Mashq: "Cho'zilishlar"**

Bola orqasi bilan yotadi, oyoqlari biroz ochilgan, qo'llari tana bo'ylab, kaftlari yuqoriga qaratilgan, orqasi to'g'ri. Katta bola oyoqlaridan birini ushlab, uni biroz cho'zadi, keyin ikkinchi oyog'ini ham xuddi shunday cho'zadi. So'ngra navbat bilan qo'llarni cho'zadi. Keyinchalik bola kattaning yordami bilan butun tanasini cho'zadi – bir vaqtning o'zida qo'llari va oyoqlari bilan cho'zilish holatini bajaradi.

*Izoh.* Ushbu mashq mushaklardagi zo'riqish va qisilishlarni bartaraf etishga qaratilgan.

##### **Mashq: "Ag'darilishlar"**

Ota-ona bolaning turli usullar bilan "yiqilishiga" va ag'darilishiga yordam beradi. Pol yuzasi yumshoq bo'lishi kerak (matlar ustida bajariladi).

##### **Mashq: "Bukilish"**

Ota-ona stulga o'tiradi va bolani tizzasiga, yuzma-yuz qilib o'tirg'izadi. Bola qo'lidan ushlab, asta-sekin orqaga egib, umurtqasini bukadi, so'ng xuddi shu tarzda sekin ko'taradi.

##### **Mashq: "Oyoqlarda ko'tarish"**

Katta kishi qulay tarzda yostiq qo'yilgan holda orqasiga yotadi va tizzasini bukadi. Mutaxassis bolaga yordam berib, uni kattaning oyoqlariga yotqizadi: bolaning boshi ota-onaning tizzasiga ustida bo'ladi, oyoqlari esa ikki tomonga osilib turadi. Bolani ehtiyotkorlik bilan, ishonchli usulda ushlab turish kerak va uning barcha harakatlarini nazorat qilgan holda, oyoqlarida asta-sekin yuqoriga ko'tariladi.

##### **Mashq: "To'pda tebratish"**

Ota-ona katta to'p (fitnes to'pi) ustiga o'tiradi va bolaga ham shu holatda – orqasi ota-onaga qaratilgan holda – o'tirishni taklif qiladi. Bola ushbu holatga o'rgangach, u to'p ustiga mustaqil o'tiradi. Bolaga bu holatga ko'nikishga imkon beriladi, u tanasidan ushlab turiladi. So'ng asta-sekin yuqoriga-pastga tebratish boshlanadi. Bola bo'shashgach, uni ehtiyotkorlik bilan qorni bilan to'p ustiga yotqizib, oldinga-orqaga tebratish mumkin.

##### **Mashq: "Meduza"**

Ushbu mashq kompleksning yakuniy bosqichlarida, bola va ota-ona o'rtasida ishonchli aloqa shakllantirish maqsadida bajariladi. Ota-ona to'rt oyoqcha holatda (tizzada va qo'llarda) turadi, bola esa orqadan yaqinlashib, ustiga yotadi va qo'llarini ota-onaning yelkalaridan ustidan oshirib qo'yadi. Ota-ona bolaning bilaklaridan mahkam ushlab, uni o'z yelkasiga ko'taradi. Shu holatda bir oz turish mumkin, 3–4 daqiqa davomida bola biroz ko'proq bo'shashishi uchun sekin tebratiladi. So'ngra bolani ehtiyotkorlik bilan yerga tushurish kerak.

*Izoh.* Ushbu mashqning afzalligi shundaki, u bir tomondan bola va ota-ona o'rtasida ishonchli aloqa paydo bo'lishiga yordam beradi, boshqa tomondan esa zo'riqishni bartaraf etadi va tana umumiy tonusining qayta taqsimlanishini ta'minlaydi.

**Sensomotor o'zaro ta'sir mashqlari****Mashq: "O'yinchoqni top"**

Bola yotgan holatda bo'ladi. U o'yinchoqni ko'zlari bilan kuzatadi (o'yinchoq bolaning individual xususiyatlariga qarab tanlanadi: o'lchami, rangi, tovushi; unga ko'nikkan sari o'yinchoqni almashtirish kerak). O'yinchoq harakati quyidagi yo'nalishlarda kuzatiladi: o'ngga-chapga, yuqoriga-pastga. Diqqatni jalb qilish uchun yorqin predmet tanlanadi, masalan, konfet. Bolaning vazifasi – o'yinchoqni ko'rish, unga qarab boshini burish va uni ushlab.

**Mashq: "Qo'ng'izchani ushla"**

Bola yotgan holatda bo'ladi, "qo'ng'izchani" qo'li bilan tutadi – buning uchun katta kishi bolaning yuzi yaqinida barmoqlari bilan shovqinli harakatlar qiladi va qo'lini bir necha nuqtalarda to'xtatib turadi: o'ngga-chapga, yuqoriga-pastga.

*Izoh.* Bola nigohining harakati silliq bo'lishi va predmetga diqqat bilan qadalishi kerak. Bolaning nigohi "sirpanib" ketayotgan ko'rish maydonlarida alohida e'tibor qaratish lozim.

**Mashq: "Oyoq massaji"**

Bola orqasi bilan yotgan holatda amalga oshiriladi. Katta kishi bolaning oyoq panjalarini bosh barmoqlari bilan bo'ylab ishqalab massaj qiladi. Har bir barmoqni 8 martagacha ishqalab va cho'zish kerak. So'ngra bolaning oyoq panjasi bilan aylana harakatlar bajariladi. Keyin panja ichkariga buriladi va o'z o'qi atrofida aylantiriladi (har bir holatda qisqa muddat ushlab turiladi). Panjalardan yuqoriga qarab silab harakatlaniladi. Shuningdek, boldir (oyoqlarning pastki qismi) massaji yuqoriga qarab silash, ishqalash bilan bajariladi. Boldirni aylantirish, "siqib chiqarish" harakatlari navbatma-navbat qoqish va uqalash bilan almashib boradi.

**Mashq: "Qo'l massaji"**

Bola yotgan holatda amalga oshiriladi. Agar bola atonik holatda bo'lsa – yengil, yuzaki, tonusni oshiruvchi massaj qo'llaniladi; gipertonus bo'lsa – yanada kuchliroq ta'sir kerak. Katta kishi bir qo'li bilan bolaning qo'lini ushlab turadi, boshqa qo'li bilan tirsakdan bilak tomon silash va uqalash harakatlarini bajaradi. Silash harakati so'ngra siqish va muskullarni siljitish bilan almashadi. So'ngra katta kishi kaft massajiga o'tadi. Bu mashq mashhur bolalar she'rlari bilan birga bajarilishi mumkin: masalan, "Qarg'a osh pishirdi, bolalarini boqqan, bunga berdi, bunga berdi..." va hokazo. Massaj qilmayotgan qo'l bolaning ochilgan kaftini ushlab turadi. Faol qo'li bilan esa katta kishi kaftni silaydi, uqalaydi, har bir barmoqni alohida massaj qiladi, yengil siqadi va har bir barmoq atrofida aylana harakatlar bajaradi. So'ngra katta kishi bir qo'li bilan bolaning bilagidan ushlab, ikkinchi qo'li bilan yelkani ushlab, bola qo'lini biroz silkitadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Sensor-motor korreksiya metodikasi autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning samarali yo'nalishlaridan biridir. Maxsus tuzilgan mashqlar kompleksi bolaning sensor sezgiriligini me'yorga keltirish, mushak tonusini normallashtirish, motor harakatlar ketma-ketligini shakllantirish va emotsional barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mashqlar bolaning psixofiziologik holatini yengillashtirish, o'z tanasini anglash, sezgi axborotini qabul qilish va unga adekvat javob berishni shakllantirish imkonini beradi.

Amaliyotda ota-onaning faol ishtiroki, mutaxassisning sezgir va moslashuvchan yondashuvi, shuningdek, bolaning sensor profili asosida mashg'ulotlarni shaxsiylashtirish muhim hisoblanadi. Korreksion mashqlar orqali bola va ota-ona o'rtasidagi ishonchli jismoniy aloqa tiklanadi, bu esa ijtimoiy va emotsional rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Татьяна Германовна Горячева, Юлия Валерьевна Никитина - Расстройства аутистического спектра у детей. Метод сенсорной коррекции Издательство "Генезис", 2018
2. Строганова Т.А. Монотропизм внимания у детей с аутизмом / Т.А. Строганова, Е Анохин П.К. Принципы системной организации функций. – М.: Наука, 1973.
3. Бауэр Т. Психическое развитие младенца. – М.: Прогресс, 1985. Башина В.М. О синдроме раннего детского аутизма Каннера // Невропатология и психиатрия. 1974. Вып. 10.
4. Бернштейн Н.А. О построении движений. – М.: Медгиз, 1947. Венгер Л.А., Ибатуллина А.А. Соотношение обучения, психического развития и функциональных особенностей созревающего мозга // Вопросы психологии. 1989. № 2.
5. Выготский Л.С. История развития высших психических функций // Собр. соч. в 6 т. Т. 3. – М., 1983.



6. Доман Г. Что делать, если у вашего ребенка повреждение мозга. – М., 2007.
7. Горюнова А.В. Неврологические предшественники и маркеры предрасположенности к шизофрении (проспективное исследование детей раннего возраста из группы высокого риска)
8. Горячева Т.Г., Султанова А.С. Сенсомоторная коррекция при нарушениях психического развития в детском возрасте. – М., 1999.
9. Джозеф Р.М. Нейропсихологические основы понимания аутизма / Особый ребенок. Исследования и опыт помощи. Вып. 5. – М.: Теревинф, 2006.
10. Исаев Д.Н., Мнухин С.С. Об органической основе некоторых шизоидных и аутистических психопатий // Актуальные вопросы клинической психопатологии и лечения психических заболеваний / Под ред. С.С. Мнухина. – Л., 1969.
11. Исаев Д.Н. Психопатология детского возраста. – СПб.: СпецЛит, 2001. Каган В.Е. Аутизм у детей. – Л.: Медицина, 1981.
12. Лакан Ж. Инстанция буквы в бессознательном, или Судьба разума после Фрейда. – М., 1997.
13. Лебединский В.В. Эмоциональные нарушения в детском возрасте и их коррекция / В.В.
14. Лебединский, О.С. Никольская, Е.Р. Баенская, М.М. Либлинг. – М.: Изд-во МГУ, 1990.
15. Леонтьев А.Н. Эволюция психики. – М.; Воронеж, 1999.
16. Лоренц К. Агрессия. – М.: Прогресс, 1994.
17. Лурия А.Р. Внимание и память. – М.: МГУ, 1975.
18. Максимова Е.В. Коррекция нарушений общения у аутистов с позиции уровневого подхода (на примере анализа уровней А, В, С) // Тезисы конференции, посвященной 80-летию со дня рождения К.С. Лебединской. – М.: ИКП РАО, 2005.
19. Манелис Н.Г. Сравнительный нейропсихологический анализ формирования высших психических функций у здоровых детей и у детей с аутистическими расстройствами: автореферат дис. ... канд. психол. наук. – М., 2000.
20. Микадзе Ю.В. Нейропсихология детского возраста. – М.; СПб, 2008. Рамачандран В.С., Оберман Л.М. Разбитые зеркала: теория аутизма // Аутизм и нарушения развития. 2008. № 3.
21. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога. – М.: Владос, 1997.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.